



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 11 - mart

29-5-74-Q/23

Nurota tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi “2023-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-82-sonli, viloyat hokimining 2023-yil 7-martdagi 24-5-0-Q/23-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

El-yurtimiz yashash va yangilanish, mehr-oqibat fasli sifatida e‘zozlaydigan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro bayram deb e‘tirof etilgan Navro‘zning ma‘naviy hayotimizdagi ulkan o‘rni va ta‘sirini inobatga olib, ushbu ayyomni milliy qadriyat va urf-odatlarimizga uyg‘un tarzda, har tomonlama munosib darajada nishonlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25, 27-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi “2023-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-82-son, viloyat hokimining 2023-yil 7-martdagi 24-5-0-Q/23-son qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2023-yilgi Navro‘z umumxalq bayramini “Har kuning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim!” degan bosh g‘oya asosida umumxalq sayllari shaklida ko‘tarinki ruh va yuksak saviyada nishonlash bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2023-yilgi Navro‘z umumxalq bayramini tumanda keng nishonlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman ishchi guruhi 2023-yilgi Navro‘z umumxalq bayramini tumanda keng nishonlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hamda ushbu ayyomning tumanda umumxalq sayli shaklida keng nishonlanishini ta‘minlasin.

4. Tuman ishchi guruhi tumanda bayram tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratilishini ta‘minlasin:

Navro‘z ayyomiga xos yangilanish va bunyodkorlik ruhini, ona zaminga mehr va e‘tibor, inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifoda etadigan kishilarni bugungi tinch va farovon hayotni qadrlab, atrof-muhit hamda uning ne‘matlarini asrab-avaylashga, ezgu orzu-maqсадlar bilan yashashga undaydigan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish;

mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish va inson qadrini ulug'lash maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xalqimizning hayoti, dunyoqarashida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni Navro'zning azaliy qadriyati va an'analari bilan muvofiq tarzda, ta'sirchan badiiy vositalar orqali aks ettirish;

obodlik va farovonlik ramzi bo'lmish Navro'z bayrami arafasida tumanda umumxalq hashari, keng qamrovli obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish;

xalqimizga xos bo'lgan mehr-muruvvat fazilatlarini davom ettirib, muhtaram nuroniylarimizni har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Muruvvat" va "Saxovat" uylarida yashayotgan kishilarga, yordam va ko'makka muhtoj fuqarolarga beg'araz yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini o'tkazish;

yurtimizda millatlararo do'stlik va fuqarolararo totuvlik muhitini mustahkamlash, shu maqsadda amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning amaliy natijalarini, O'zbekistonfuqarosi bo'lgan turli millat va elatlar vakillari tomonidan Navro'z umumxalq bayramini nishonlashga oid tadbirlarni tashkil etish va keng yoritish;

tumanda bo'lib o'tadigan saylga folklor guruhlari, badiiy xavaskorlik jamoalari, dorbozlar va baxshilar, shuningdek, iste'dodli an'anaviy ijrochilar va estarada artistlarini jalb etish;

Navro'z saylining dasturini tayyorlashda qadimiy urf-odatlarimiz va xalq o'yinlari, madaniy merosimizning yorqin namunalari bo'lgan kuy va qo'shiqlar, o'lan va laparlarga keng o'rin berish;

bayram tadbirlari doirasida hunarmandchilik ko'rgazmalari, milliy sport turlari bo'yicha musoboqalar uyushtirish, kitob rastalari, ko'chma savdo do'konlarini tashkil qilish, ko'klam taomlarini tayyorlash va ularning savdosini yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalarida Navro'zning tarixi va mohiyatini, tumanda shuningdek, chet ellardagi vatandoshlarimiz davralarida bayramni nishonlash bo'yicha shakllangan urf-odat va an'analarni keng yoritish;

5. Tuman madaniyat bo'limi (A.Karimov) tuman ma'naviyatva ma'rifat bo'limi (O'.Karimov) bilan birgalikda :

uch kun muddatda Nurota tumanida Navro'z bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqish;

mazkur konsert tomoshasini tajribali ssenarist va rejessyorlar, kompozitor va bastakorlar, baletmeysterlar, iste'dodli yosh ijrochilar, folklor san'ati vakillarini jalb etgan holda yuqori badiiy saviyada tayyorlash choralari ko'rsin;

6. Tuman hokimi o'rinbosari (Sh.Vafojev), tuman madaniyat bo'limi (A.Karimov):

Navro'z umumxalq sayli o'tkaziladigan asosiy maydon, xiyobon va ko'chalarni belgilash, ularni milliy uslubda bayramona bezatish hamda sahnalarni o'rnatish;

tumanda bo'lib o'tadigan umumxalq sayliga mahalliy folklor guruhlari, badiiy havaskorlik jamoalari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar, shuningdek, professional ijrochilar va iste'dodli estrada xonandalarini belgilangan tartibda keng jalb etish;

bayram tadbiri doirasida tumanga xos bo'lgan xalq o'yinlari, tomoshalar, ko'rgazmalar o'tkazish, bahoriy taomlar sotiladigan ochiq oshxonalarini joylashtirish;

bayram dasturini va ommaviy tomoshalarni tayyorlashda, ko'chalar, xiyobonlar va maydonlarni bezatishda malakali mutaxassislardan iborat ijodiy guruhlarini keng jalb etish choralari ko'rsin.

7. Tuman hokimligi Axborot xizmati (L.Mansurov), tuman "Nurnoma" gazetasi (L.Bozorov) ommaviy axborot vositalarida Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish ishlarini va bayram tadbirlarini

atroflicha yorib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Fayziyev

Nurota tuman hokimining
2023 yil 11 martdagi
29-5-74-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yilgi Navro‘z umumxalq bayramini “Har kunning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim!” degan bosh g‘oya asosida tumanda ko‘tarinki ruh va yuksak saviyada nishonlash bo‘yicha tuman ishchi guruhi

TARKIBI

№	F.I.SH		Ish joyi va lavozimi
1.	A.Fayziyev	-	Tuman hokimi, ishchi guruhi rahbari
2.	A.Bo‘riyev	-	Tuman hokimining o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
3.	Sh.Vafojev	-	Tuman hokimining o‘rinbosari
4.	Sh.Rustamov	-	Tuman hokimining o‘rinbosari
5.	G.Bobomurodova	-	Tuman hokimining o‘rinbosari
6.	U.Abduraxmonov	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i,
7.	O‘.Karimov	-	Tuman ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘linmasi rahbari
8.	A.Shokirov	-	Tuman Mahalla va Nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi
9.	A.Karimov	-	Tuman madaniyat bo‘limi mudiri
10.	S.Haydarov	-	Tuman moliya bo‘limi mudiri
11.	H.Mavlyanov	-	Favqulodda vaziyatlar tuman bo‘limi boshlig‘i
12.	U.Usmonov	-	Yoshlar ishlari agentligi Nurota tuman bo‘limi boshlig‘i
13.	B.Xidirov	-	Tuman tibbiyot birlashmasi rahbari
14.	O.Bo‘ronov	-	Tuman SEOva JS markazi bosh vrachi
15.	Z.Safarova	-	Hunarmand uyushmasi tuman bo‘limi rahbari
16.	L.Bozorov	-	Tuman “Nurnoma” gazetasi tahririyati

Nurota tuman hokimining
2023 yil 11 martdagi
29-5-74-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Nurota tumanida “Har kunning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim!” shiori ostida “Navro‘z sayli”ni tashkil etish maqsadida bayram konsert tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish yuzasidan

CHORA-TADBIRLAR REJASI

№	Belgilangan tadbirlar nomi	Amalga oshirish muddati	Hamkorlar
1.	Tumanda Navro‘z sayli”ni tashkil etish yuzasidan tashkiliy qo‘mita yig‘ilishini o‘tkazish.	2023 yil 6 mart	SH.Vafoev - tuman hokimi o‘rinbosari; G.Bobomurodova – tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi rahbari; A.SHokirov - tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi rahbari O‘.Karimov - tuman Ma’naviyat va ma’rifat bo‘linmasi rahbari; U.Usmonov - YOshlar ishlari Agentligi tuman bo‘limi rahbari; A.Karimov - tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i; U.Kozimov - tumandagi 5-son BMSM direktori.
2.	“Har kunning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim!” mavzusida tumandagi mahallalarda hamda ta’lim muassasalarida, korxona tashkilotlarda ma’naviy ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari o‘tkazish.	2023 yil 13-25 mart kunlari	O‘.Karimov - tuman ma’naviyat va ma’rifat bo‘linmasi rahbari; A.SHokirov - tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi rahbari; U.Usmonov - YOshlar ishlari Agentligi tuman bo‘limi rahbari; B.Bobonazarov - tuman XTB mudiri; Tumandagi korxona-tashkilot rahbarlari

3.	“ Har kunning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim! ” shiori ostida tumandagi Amfiteatrda o‘tkaziladigan tuman konsert dasturi hamda “Yoshlik” milliy bog‘ida bo‘ladigan bayram sayli hududlarini tozalash, atrofini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish.	2023 yil 16 martgacha	SH.Rustamov – tuman hokimi o‘rinbosari; R.Saidov -tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i. A.SHokirov - tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi rahbari; A.Karimov - tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i;
4.	Obodlik va farovonlik ramzi bo‘lmish Navro‘z bayrami arafasida tuman markazida va qishloqlarda, mahallalarda umumxalq hasharlari, keng qamrovli obodonchilik va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish.	2023 yil 13-19 martgacha	SH.Rustamov – tuman hokimi o‘rinbosari; R.Saidov -tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i. A.SHokirov - tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi rahbari; Tumandagi korxona-tashkilot rahbarlari va MFY raislari
5.	Tuman bayram tadbiri o‘tkaziladigan joyda zarur texnik uskuna (<i>audio, video, mini disk, ovozni kuchaytirish, LED ekran</i>)lar bilan ta‘minlash hamda zarur shart-sharoitlarni yaratib berish.	2023 yil 18 mart kunigacha	SH.Vafoev - tuman hokimi o‘rinbosari; A.Karimov - tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i; U.Kozimov - tumandagi 5-son BMSM direktori
6.	Sayl doirasida tumandagi mahalalar va korxona tashkilotlarning ko‘rgazmalarini tashkil etish ular uchun 4x6 hajmda joy ajratish hamda ishtirokini ta‘minlash.	2023 yil 16 mart	SH.Rustamov – tuman hokimi o‘rinbosari; SH.Vafoev - tuman hokimi o‘rinbosari; A.SHokirov - tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi rahbari; Tumandagi korxona-tashkilot rahbarlari.
7.	Navro‘zning azaliy qadriyat va an‘analari bilan muvofiq tarzda, ta‘sirchan badiiy vositalar orqali aks ettirish yuzasidan Nurota tuman Amfiteatrda “ Har kunning Navro‘z bo‘lsin, jonajon O‘zbekistonim! ” shiori ostida Navro‘z umumxalq bayrami konsert dasturi va CHashma ziyoratgohi yonidagi “YOshlik” milliy bog‘ida bayram sayli o‘tkazilishi, sayilga folklor guruhlari, badiiy havaskorlik jamoalari, dorbozlar, iste‘dodli an‘anaviy ijrochilar va estrada artistlarini jalb etish.	2023 yil 18 mart soat 11:00	SH.Vafoev - tuman hokimi o‘rinbosari; X.To‘ychiev – tuman hokimligi tashkiliy guruh rahbari. G.Bobomurodova – tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi rahbari; A.SHokirov - tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi rahbari O‘.Karimov - tuman Ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘linmasi raxbari; U.Usmonov - YOshlar ishlari Agentligi tuman bo‘limi rahbari; A.Karimov - tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i; U.Kozimov - tumandagi 5-son BMSM direktori.
8.	Bayram tadbirlari doirasida hunarmandchilik ko‘rgazmalari, milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil qilish, mahallalar tomonidan ko‘klam taomlarini tayyorlash, urf odat, qadriyatlarimizni o‘zida mujassam etkan folklor chiqishlar namoyishini tashkil etish.	2023 yil 18 mart	SH.Vafoev - tuman hokimi o‘rinbosari; G.Bobomurodova – tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi rahbari; A.SHokirov - tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi rahbari A.Karimov - tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i; A.Qulmonov – tuman BO‘SM direktori
9.	Ko‘rgazgamlarda faol ishtirok etgan va I, II, III o‘rinlarni qo‘lga qiritgan jamoalarni taqdirlashni tashkil etish.	2023 yil 18 mart	A.Bo‘riev - tuman hokimi o‘rinbosari; SH.Vafoev - tuman hokimi o‘rinbosari; O.Jo‘raqulov - tuman DSI boshlig‘i; S.Haydarov - tuman moliya bo‘limi rahbari.

10.	Xalqimizga xos bo'lgan mehr-muruvvat fazilatlarini davom ettirgan holda tumandagi "Muruvvat" uyida yashayotgan kishilarga, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar holidan xabar olish va ko'makka muhtoj fuqarolarga beg'araz yordam berish maqsadida "Inson qadri ulug'langan yurt" ezgu g'oyasini o'zida mujassam etgan xayriya tadbirlarini o'tkazish belgilab olingan.	2023 yil 21 mart kunigacha	SH.Vafoev - tuman hokimi o'rinbosari; G.Bobomurodova – tuman oila va xotin-qizlar bo'limi rahbari; A.SHokirov - tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi rahbari; I.Nusratov – tuman "Mahalla" XJF raisi; O'.Karimov - tuman ma'naviyat va ma'rifat bo'linmasi raxbari; U.Usmonov - YOshlar ishlari Agentligi tuman bo'limi rahbari; Sektor rahbarlari, tuman kengashi deputatlari.
11.	Sayl o'tkaziladigan joylarda ko'chma savdo shaxabchalari, oshxonalarni tashkil etish va ularning sanitariya xolatini ta'minlash.	2023 yil 18 mart	O.Jo'raqulov - tuman DSI boshlig'i SH.O'roqov - tuman DSENM boshlig'i
12.	Konsert dasturlari davomida tez tibbiy yordam xizmati va xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish.	Tadbirlar davomida	U.Abdurahmonov - tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i; B.Xidirov - tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i:
13.	Tadbirni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini ta'minlash.	Reja asosida	L.Bozorov - tuman "Nurnoma" gazetasi muharriri; L.Mansurov – tuman hokimligi matbuot kotibi